

NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDA RASMIY USLUBNING QIYOSIY TADQIQI

Isayeva Gulora Faxriddinovna,

O‘zDJTU o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola nemis va o‘zbek tillaridagi rasmiy uslubning funksional-stilistik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda rasmiy uslubning davlat boshqaruvi, huquqiy va diplomatik sohalaridagi o‘rni, uning janrlar xilma-xilligi hamda mazkur uslubga xos bo‘lgan lingvistik me‘yorlar (shaxsiylikdan xolilik, ixchamlik, mantiqiylik va terminologik standartlashuv) har tomonlama o‘rganilgan. Maqolada rasmiy uslubning individual va institutsional shakllari tasniflanib, hujjat turlarining sintaktik va leksik tuzilishi tahlil qilingan. Shuningdek, mavzu doirasida o‘zbek tilshunoslari (N.Mahmudov, E.Begmatov) va rus olimlarining (Ye.P.Rashevskaya, G.P.Nesgovorova) ilmiy qarashlari solishtirildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, rasmiy uslub jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy va huquqiy munosabatlarni tartibga solishda muhim vosita bo‘lib, u qat‘iy adabiy normalar, mantiqiy izchillik va yuqori darajadagi formallashganlik bilan ajralib turadi.

Kalit so‘zlar: rasmiy uslub, funksional uslub, diplomatik yozishmalar, huquqiy hujjatlar, lingvistik me‘yorlar, shaxsiylikdan xolilik, terminologik standartlashuv, qiyosiy tilshunoslik.

Abstract. This article is dedicated to a comparative analysis of the functional-stylistic features of the official style in the German and Uzbek languages. The study comprehensively examines the role of the official style in state administration, legal, and diplomatic spheres, as well as its genre diversity and the linguistic norms characteristic of this style (impersonality, conciseness, logicity, and terminological standardization). The research classifies the individual and institutional forms of the official style and analyzes the syntactic and lexical structure of various document types. Furthermore, the scientific perspectives of Uzbek linguists (N. Mahmudov, E. Begmatov) and Russian scholars (E.P. Rashevskaya, G.P. Nesgovorova) are compared within the scope of the topic. The results of the research indicate that the official style is an essential tool for regulating socio-political and legal relations in society, distinguished by strict literary norms, logical consistency, and a high degree of formalization.

Keywords: official style, functional style, diplomatic correspondence, legal documents, linguistic norms, impersonality, terminological standardization, comparative linguistics.

Аннотация. Данная статья посвящена сопоставительному анализу функционально-стилистических особенностей официально-делового стиля в немецком и узбекском языках. В исследовании всесторонне рассматривается роль официально-делового стиля в сферах государственного управления, правовой и дипломатической деятельности, а также его жанровое разнообразие и лингвистические нормы, характерные для данного стиля (безличность, лаконичность, логичность и терминологическая стандартизация). В работе классифицируются индивидуальные и институциональные формы официально-делового стиля, а также анализируется синтаксическая и лексическая структура различных типов документов. Кроме того, в рамках темы сопоставляются научные взгляды узбекских лингвистов (Н. Махмудов, Э. Бегматов) и российских ученых (Е.П. Рашевская, Г.П. Несговорова). Результаты исследования показывают, что официально-деловой стиль является важнейшим инструментом регулирования социально-политических и правовых отношений в обществе, отличающимся строгими литературными нормами, логической последовательностью и высокой степенью формализации.

Ключевые слова: официально-деловой стиль, функциональный стиль, дипломатическая переписка, юридические документы, лингвистические нормы, безличность, терминологическая стандартизация, сопоставительная лингвистика.

Kirish. Til inson faoliyatining muayyan sohalarida o‘ziga xos vazifalarni bajaradi, bu esa uning funksional uslublarga bo‘linishini taqozo etadi. Funksional uslublar – nutqning aloqa, xabar berish va ta’sir etish vazifalariga ko‘ra farqlanadigan yordamchi

tizimlaridir. Ushbu uslublar ichida rasmiy uslub (yoki rasmiy-idoraviy uslub) davlat, huquqiy va diplomatik munosabatlarni tartibga soluvchi eng muhim bo'g'in sanaladi.

Ushbu ishning maqsadi o'zbek va nemis tillaridagi rasmiy uslubning umumiy va o'ziga xos lingvistik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, ushbu uslubning jamiyat ijtimoiy-huquqiy hayotidagi tutgan o'rnini asoslashdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida har ikki tildagi rasmiy hujjatlar, qonunchilik aktlari va diplomatik yozishmalar tanlab olindi.

Uslub – tilning inson faoliyatining muayyan sohasi bilan bog'liq vazifalariga ko'ra ajratilishidir. Kishilar faoliyatning barcha sohalarida aloqa qilish jarayonida tildagi leksik, frazeologik, grammatik va fonetik vositalarni tanlash va ishlatishdan bir-birlaridan ma'lum darajada farq qiladilar. Umumxalq tili doirasida til vositalarining bunday tanlab olinishi nutqning xilma-xil ko'rinishlarining paydo bo'lishiga olib keladi. Nutq uslubi tilning vazifasi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham ular funksional uslub deb yuritiladi. Funksional uslub deganda, aniq bir adabiy til tarkibi ichida qaraladigan, o'ziga xos xususiyatlari, xizmat qilish doirasi bilan o'zaro farq qilib turadigan yordamchi tizim tushuniladi. Bu esa o'z navbatida nutq ko'rinishlarining asosiy vazifalariga, ya'ni aloqa, xabar berish, ta'sir etish vositasi bo'lishiga ko'ra turli qismlarga bo'linadi: so'zlashuv, rasmiy, ilmiy, publitsistik va badiiy uslub.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'zbek tilshunosligida rasmiy uslubga deyarli bir xil tavsif berilishi kuzatiladi. Jumladan, N.Mahmudov, A.Rafiyev, I.Yo'ldoshevlar tomonidan yozilgan *Davlat tilida ish yuritish* darsligida rasmiy uslubga quyidagicha tavsif berilgan: "Rasmiy-idoraviy nutq uslubi jamiyatdagi ijtimoiy, huquqiy munosabatlar, davlat va davlatlararo rasmiy, siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar uchun xizmat qiluvchi uslubdir". Darhaqiqat, rasmiy-idoraviy uslub davlat, tashkilot, jamoat institutlari faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Shu sababli bu uslub orqali huquqiy kuchga ega bo'lgan hujjatlar yaratiladi, muloqot tartibga solinadi, davlat fuqarolari bilan tizimli aloqani amalga oshiradi.

E.Begmatov boshchiligidagi mualliflar jamoasi tomonidan tuzilgan *O'zbek nutqi madaniyati ocherklari* kitobida ham rasmiy uslubning jamiyatdagi ijtimoiy, huquqiy munosabatlar uchun, davlat va davlatlararo maxsus rasmiy, siyosiy-iqtisodiy va rasmiy sotsial-madaniy munosabatlar uchun xizmat qilishi qayd etilganligi kuzatiladi. Bu yondashuv yuqorida keltirilgan fikrni to'ldiradi va rasmiy uslub nafaqat qonuniy hujjatlar, balki madaniy-tashkiliy sohalardagi hujjatlarni ham o'z ichiga olishini, shu bilan birga rasmiy uslub doirasi kengayib borayotganligini va uni turli kontekstda qo'llash zarurligini ta'kidlaydi.

M.Muhitdinova, N.Abdullayevalarning "Rasmiy uslubning diplomatik yozishmalar turi" deb nomlangan o'quv qo'llanmasida ham shunga yaqin tavsif keltirilgan: "Rasmiy uslub jamiyatdagi ijtimoiy, huquqiy munosabatlar, o'zaro rasmiy aloqalar uchun xizmat qiluvchi nutq uslubi bo'lib, boshqa uslublardan hujjatchilik xususiyati bilan ajralib turadi".

Bu ta'rifda yuqoridagi fikrlarda keltirilmagan rasmiy uslubga xos bo'lgan hujjatchilik xususiyatiga urg'u beriladi. Zero, rasmiy uslub boshqa uslublardan aynan hujjat shaklida rasmiylashtirilganligi, normativlikka asoslanganligi va yuridik kuchga egaligi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik tahlil, tavsifiy tahlil kabi ilmiy-metodologik yondashuvlardan foydalanildi va o'zbek va nemis tillaridagi rasmiy uslubning leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlari solishtirildi. Bundan tashqari, rasmiy uslubning funksional-stilistik belgilari tizimlashtirildi. N.Mahmudov, E.Begmatov, M.Muhitdinova, E.P.Rashevskaya, G.P.Nesgovorova kabi olimlarning ushbu mavzudagi nazariy qarashlari umumlashtirildi.

Tahlil va natijalar. Rasmiy uslub hozirgi o'zbek tilining davlat-ma'muriy, huquqiy muassasalarida, rasmiy diplomatik munosabatlarida namoyon bo'ladigan ko'rinishidir. Qonun matnlari, farmonlar, farmoyishlar, buyruqlar, xullas, barcha rasmiy ish qog'ozlari ana shu uslubda shakllanadi. Bu uslubning og'zaki va yozma ko'rinishlari, binobarin, ushbu ko'rinishlarning o'z me'yorlari mavjud.

Yuqorida keltirib o'tilgan me'yorlar nemischa rasmiy matnlar uchun ham xos hisoblanadi va o'z navbatida nemis tilida yozilgan rasmiy uslub shaxssizlik va xolislik, ixchamlik va qisqalik, qat'iy adabiy shakl, oson tushunarlik kabi o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Ye.Zaxarova fikricha, nemis tilida rasmiy uslubning quyidagi ko'rinishlari farqlanadi:

- yozma-monologik (hujjatlarda, ish yuritishga oid materiallarda, protokollarda va boshqalarda);
- og'zaki-monologik (mansabdor shaxslarning nutqlarida);
- og'zaki-dialogik (rasmiy muloqotda).

Yuqorida keltirilgan rasmiy uslub ko'rinishlari nemis tilida rasmiy uslubga xos me'yor hisoblanadi va bu uslub uchun oddiy so'zlashuv uslubiga xos so'zlarni ishlatish xos emas. Rasmiy uslubda hujjat turlariga ko'ra ma'lum bir funksional leksika kuzatiladi: ba'zilar sof nemischa so'zlar bo'lsa, boshqalari chet tillardan o'zlashgan terminlar, ba'zilar esa terminologik bo'lmagan klishealar hisoblanadi. Masalan, huquqshunoslik sohasida: *Strafverfahren, Urteil fallen, Zeuge, das Wort entziehen, der Gerichtshof.*

Shu tariqa, har bir rasmiy xat, har bir xabar, har bir ariza boshlanishida hujjat mazmunining qisqacha ta'rifi beriladi. Masalan: *Betreff: Urlaubsgesuch wegen dringender Familienangelegenheiten (Favqulodda oilaviy ishlar sababli ta'til arizasi).*

Hujjatning yakuniy qismida ko'pincha ilova qilingan hujjatlar soni keltiriladi yoki ular aniq sanab o'tiladi (*Geburtszeugnis (Tug'ilganlik guvohnomasi), Leumundszeugnis (yaxshi xulqi haqida guvohnoma (tavsifnoma)), Reifezeugnis (bitiruv guvohnomasi).*

Har bir protokol, ma'lum bir qolip asosida, o'ziga xos so'z boyligini taqdim etishi kerak, masalan: *Protokoll über ..., anwesend, Teilnehmer, Leitung, Tagesordnung, Beginn, Verhandlungsablauf, Beschluss, Unterschrift des Protokollanten (Schriftführers)* kabi

otlar, *hiermit, hiervon, hierfür* kabi olmosh-ravishlar rasmiy uslubga xosdir: *Hiervon werden Sie rechtzeitig in Kenntnis gesetzt. Hiermit bitten wir Sie ...*(Bu haqda Sizga o‘z vaqtida xabar beriladi. Shu bilan birga, Sizdan ... so‘raymiz)

Rasmiy uslub funksional uslublar tizimida o‘zining aniq kommunikativ vazifasi bilan ajralib turadi. Ushbu uslubning asosiy maqsadi — davlat idoralari, boshqaruv organlari, turli darajadagi jamoat tashkilotlari o‘rtasida, shuningdek, ular bilan jamoatchilik o‘rtasida yozma va og‘zaki rasmiy muloqotni amalga oshirishdan iboratdir. Bu uslub xuddi o‘zbek tilidagi kabi huquqiy hujjatlar, qonunlar, farmonlar, nizomlar, diplomatik yozishmalar, sud va tijorat sohasiga oid korrespondensiyalar, rasmiy bayonotlar va boshqa rasmiy-nutqiy janrlar bilan ifodalanadi.

Bir qator tilshunoslar nemischa rasmiy uslubga xos bo‘lgan asosiy stilistik belgilar sifatida shaxsiylikdan xolilik, mavzuga xos xolislik, ixchamlik, qat’iy adabiy-normal shakllarga tayanish, tushunarli bo‘lishni ta’kidlaydilar. Shuningdek, nemischa rasmiy matnlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri otlashgan birikmalarning, yoyiq aniqlovchi guruhlar va *um...zu+Infinitiv* konstruksiyali gaplarning ko‘p uchrashidir. Passiv konstruksiyalar esa rasmiy matnning shaxsiylikdan xoli bo‘lishiga xizmat qiladi, ya’ni gapda faol subyekt ifodalanmaydi, bu esa obyektivlikni kuchaytiradi. Bundan tashqari, *-ung, -heit, -keit* qo‘shimchalari bilan hosil qilingan (masalan, *Entscheidung, Möglichkeit, Zuständigkeit*) abstrakt otlar, *zur Sprache bringen, Verwendung finden, Bericht erstatten* kabi semantik noziklik va rasmiylikni oshiruvchi ot+fe’lli birikmalar, *vermittels, betreffs, gemäß, hiermit, hiervon* kabi ravishlar rasmiylikni oshirishga xizmat qiladi, ketma-ket ko‘rinishdagi sanab o‘tilgan birliklar rasmiy matnga tizimlilik va aniqlik beradi.

Rasmiy uslubga doir berilgan ta’rif va tavsiflar ushbu funksional uslubning nutqiy tizimdagi o‘ziga xos o‘rnini aniq belgilab beradi. Ushbu uslub, jamiyat a’zolari faoliyat yuritayotgan sohasi, ijtimoiy mavqei yoki kasbiy mansubligidan qat’iy nazar, ularning rasmiy doiradagi aloqa-munosabatlarini amalga oshirishda til vositasi sifatida xizmat qiladi. Boshqa funksional uslublar bilan solishtirilganda, rasmiy uslubning qo‘llanish doirasi ancha kengligi bilan ajralib turadi. Xususan, ilmiy faoliyat jarayonida – ilmiy tadqiqot himoyasi, ilmiy anjumanlar, konferensiyalar va qurultoylarda ham rasmiy muloqot elementlari muhim kommunikativ komponent sifatida amal qiladi. Bu esa rasmiy uslubning ko‘p funksiyalilik va sotsial kommunikatsiyadagi ahamiyatini yanada yaqqol namoyon etadi. Rasmiy uslubning yana bir muhim jihati uning individual va institutsional (jamoaviy) ko‘rinishlarda faoliyat ko‘rsatishidir. Ana shu nuqtai nazardan rasmiy uslubning bu ko‘rinishi ikki turga bo‘linadi: 1) yakka shaxslar tomonidan ishlab chiqiladigan rasmiy nutq turlari: ariza, tilxat, vasiyatnoma, rasmiy bayonotli chiqishlar; 2) jamoa yoki muassasa nomidan rasmiylashtiriladigan nutqiy birliklar: diplomatik yozishmalar, xalqaro shartnomalar, qarorlar, deklaratsiyalar va boshqalar. Yuqorida keltirilgan ikkala ko‘rinish ham keng qo‘llaniladi va bu holat rasmiy uslubning ijtimoiy muvofiqlashtiruvchi vazifasini oydinlashtiradi.

Rasmiy uslub o'zining nutqiy shakllanish jihati bilan ham ikki yo'nalishda, ya'ni og'zaki va yozma shaklda namoyish bo'ladi. Shunga qaramay, bu uslub odatda yozma shakldagi hujjatlar, protokollar, farmoyishlar va boshqa rasmiy hujjat janrlari orqali keng ifoda topadi. Bu esa rasmiy yozishmalar va hujjat aylanishi tizimining jamiyat hayotidagi o'rni yuqoriligidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, rasmiy uslub janr jihatidan yuqori darajada differentsiallashgan bo'lib, u o'z ichiga turli ko'rinishdagi matn turlarini — me'yoriy-huquqiy hujjatlar, rasmiy e'lonlar, arizalar, diplomatik protokollar, xalqaro bitimlar, farmonlar va qarorlarni oladi. Ushbu janrlarning stilistik mezonlar asosida standartlashtirilganligi, ularning rasmiy muloqotda samarali qo'llanilishiga imkon yaratadi.

Rasmiy uslubga xos xususiyatlardan yana biri uning janr jihatdan rang-barangligidir. Tilning funksional uslublari tizimida faqat rasmiy uslub janr xususiyatiga ko'ra xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Rasmiy uslub idoraviy ish yuritish, diplomatik aloqalar hamda qonunchilikka oid rasmiy hujjatlarni qamrab oladi. Shu bois manbalarda bu uslubga nisbatan *rasmiy ish uslubi*, *rasmiy-idoraviy nutq uslubi*, *ish yuritish uslubi*, *rasmiy hujjatlar uslubi*, *hujjatlar uslubi*, *ish qog'ozlari uslubi*, *epistoliar uslub*, *qonunlar uslubi* kabi nomlarning qo'llanilishi kuzatiladi. D.Babaxanova bu uslubga nisbatan turli nomlarning qo'llanilishi xususida fikr yuritib, uning rus olimasi M.N.Kojina tomonidan *rasmiy-ish uslubi* tarzida nomlanishini ilmiy jihatdan, ham lingvistik, ham lingvopsixologik jihatdan to'g'ri deb hisoblaydi.

Zero, rasmiy uslubning janr jihatdan rang-barangligi va shunga ko'ra unda turli xildagi matnlarning shakllantirilishi, har bir matnda o'ziga xos leksik, grammatik birliklarning qo'llanishi, yuqori darajadagi sintaktik qoliplashuv, shu bilan birga, bir vaqtda adabiy tilning barcha me'yorlariga qat'iy amal qilishlik kabilar bu uslubning ancha murakkabligidan dalolat beradi. Bu xususida fikr yuritar ekan, rus olimasi G.P.Nesgovorova rasmiy ish uslubining murakkabligini matnlarning xilma-xilligi bilan bog'laydi. Uning fikricha, bunday xilma-xillik ko'p darajali bo'ladi, ya'ni ichki uslublarning miqdori, ularning chegarasini aniqlash yoki shartli tarzda chegara qo'yishning qiyinligi kabilar. Olima rasmiy ish uslubi murakkabligiga qaramay, unda paradoksning kuzatilishi, materiallarning yuqori darajada formallashtirilganligi, ichki uslublarning aniq tabaqalashuvi va tarkibining o'ziga xosligi namoyon bo'lishini bayon qiladi va shunday bo'lsada, bu holatlar qoniqarli natijalar bermasligi, shu bois rasmiy ish uslubining aniq va qat'iy tavsifini topish ancha murakkabligini ta'kidlaydi.

Rasmiy uslubning vazifaviy imkoniyatlari ham keng. Rasmiy uslub kishilar o'rtasidagi rasmiy aloqa-munosabatlarni nafaqat qayd etish, balki ularga bu haqda ma'lumot yetkazish vazifasini ham bajaradi. Barcha rasmiy hujjatlar asosida mana shu maqsad yotadi. Masalan, majlis bayonnomasida kun tartibida belgilangan masalalar, ularning muhokamasi, qabul qilingan qarorlar haqida ma'lumot beriladi. Hatto ishga qabul qilish so'rab yozilgan arizada ham ariza beruvchining istak-xohishi haqida ma'lumotga

ega bo'linadi. Yoki biror bir anjumanning o'tkazilishi vaqti e'lon qilingan matn orqali ham u haqida ma'lumotga ega bo'linadi.

Tilshunoslikda rasmiy uslub qo'llanish doirasiga ko'ra ichki turlarga bo'lib o'rganiladi. Bu jihatdan rasmiy uslubning, asosan, quyidagi turlari farqlanadi: a) qonunchilik hujjatlari va diplomatik aloqalarga doir hujjatlar uslubi; b) ish yuritish hujjatlari uslubi.

Rasmiy-idoraviy ish hujjatlari matnining lingvistik xususiyatlari xususida mulohaza yuritar ekan, tilshunos olim N.Mahmudov bunday hujjatlar matniga qo'yiladigan eng muhim talablardan biri sifatida xolislikni qayd etgan. Shuningdek, u ish hujjatlari aniqlik, ixchamlik, lo'ndalik, mazmuniy to'liqlik talablariga javob berishi kerakligini ham eslatib o'tadi. Rus olimasi Ye.P.Rashevskaya rasmiy ish hujjatlari uslubining quyidagi lingvistik xususiyatlarini sanab ko'rsatgan:

1. Rasmiylik, haqqoniylik, vazminlik;
2. Aniq va ixcham bayonda ma'lumotlarning to'liqligi;
3. Ehtirosga berilmaslik, ohangning rasmiyligi, his-tuyg'u, subyektivlikning to'g'ri kelmasligi;
4. Hujjatlarning stereotipligi yoki rasmiy ish vaziyati nutqiy vositalarga cheklov qo'yish va standartlashtirishni taqozo etishi kabilar.

Boshqa bir rus olimasi G.P.Nesgovorova esa ish hujjatlariga xos quyidagi jihatlarlarni ajratib ko'rsatgan:

- Mazmunning ishonchliliigi va haqqoniyligi;
- ma'lumotning to'liqliligi;
- mazmunga ziyon yetkazmaydigan darajada ifodaning qisqaligi;
- bayonda ohangning neytralligi;
- dalil va natijalar mantiqiy bahosining vositalari;
- bir ma'noga ega bo'lmagan ifodalar (barcha darajadagi omonimiya)ning yo'qligi;
- nutqiy vositalarning bir xillashtirilishi va terminologiyaning standartlashtirilishi.

Keltirilgan fikrlarga tayanib shuni aytish mumkinki, har ikkala olimaning yondashuvida rasmiy uslubga xos bo'lgan rasmiylik, aniqlik, neytrallik kabi xususiyatlar asosiy o'rinda turadi. Lekin Ye.P.Rashevskaya rasmiy uslubning stilistik va funksional xususiyatlariga ko'proq urg'u bersa, G.P.Nesgovorova mantiqiylik, aniqlik, til xatolarining oldini olish, omonimiyadan qochish kabi lingvistik-sintaktik va semantik aniqlikka alohida e'tibor beradi.

A.G.Ilmuxametov ilmiy manbalarda rasmiy uslubga xos o'nlab xususiyatlarning ko'rsatilishi va fikrlardagi xilma-xillikni bir ichki uslubda bir xususiyat, ikkinchisida boshqa, uchinchisida esa yana boshqa belgi markaziy o'rin egallashi bilan bog'laydi. U qonunchilik uslubida mavhumlik, ko'rsatma berish, majburiylik belgilari birinchi o'ringa chiqishini, kanselyarlik uslubida esa qoliplashtirilganlik, bir xillik ko'zga tashlanishi, ayni

vaqtda rasmiy ish uslubining hamma janrlariga aniqlik, obyektivlik, rasmiylik, bayondagi neytral ton kabilarning xosligini ta'kidlaydi.

D.Lutfullayeva esa o'z monografiyasida rasmiy-idoraviy ish hujjatlarida bayon etiluvchi axborotga qo'yiladigan talablarni umumlashtirilgan holda taqdim etadi.

Keltirilgan fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, rasmiy-idoraviy ish hujjatlarida axborotni bayon etishning o'ziga xos jihatlari bo'lib, bunday ish hujjatlari matnining muayyan lisoniy me'yorlar asosida shakllantirilishi ularning matniga xos aniq lingvistik talablar ham qo'yilishini ko'rsatadi. Professor N.Mahmudov bu xususida quyidagilarni ta'kidlaydi: "Boshqaruv jarayonining murakkabligi va serqirraligiga muvofiq ravishda idoraviy ish yuritish qog'ozlari, hujjatlar ham xilma-xil va miqdor jihatdan juda ko'p. Hujjatlarning maqsadi, yo'nalishi, hajmi, shakli va boshqa bir qator sifatleri ham turlichadir. Shunday ekan, hujjatlar tiliga bo'lgan umumiy talablar bilan bir qatorda har bir turkum hujjatlar tuzish ishiga qo'yiladigan ko'pgina lisoniy talablar ham mavjud".

Shu o'rinda shuni qayd etish lozimki, ish hujjatlari matniga qo'yiladigan lingvistik talablardan biri matnining rasmiy til me'yorlariga mos tarzda tuzilishi masalasidir. Bu jihatdan idoraviy ish hujjatlari matniga umumiy tarzda leksik, morfologik, so'z yasalishi, sintaktik va yozuv me'yorlari kabi lisoniy me'yorlarga amal qilish talabi qo'yilishini ko'rsatish mumkin.

Rasmiy matnlarning yozilishida ularning har birining xususiy, ayni paytda, barcha rasmiy uslubda shakllantiriladigan hujjatlar talabiga mos keladigan umumiy me'yorlari takomillashdi. Aslida davlat miqyosida amalda bo'lgan har bir huquqiy hujjatning qat'iy me'yorlar asosida yaratilishi ham umumtil madaniyatining tarkibiy qismidir. Hujjatlar qanchalik tushunarli tilda yozilsa, uslubi qanchalik ravon bo'lsa, uni tushunish, ijrosini ta'minlash va unga amal qilish ham shunchalik oson kechadi. Shuning uchun ham bugungi kunda faol amalda bo'lgan o'zbek tili rasmiy uslubini zamon talablaridan kelib chiqib tadqiq etish, uning xulosalari va natijalarini ommalashtirish o'zbek tili madaniyatining yanada takomillashuviga hamda uning barcha jabhalarda foydalanishiga qulay imkoniyatlar yaratilishiga xizmat qiladi.

Rasmiy uslub doirasidagi hujjatlarning har biri bir uslub ichida yana o'z shakllanish uslublariga ega. Masalan: hukumat qarorlari, farmonlar, farmoyishlar, chaqiriqlar, qonunlar, buyruqlar, nizomlar, yo'riqnoma, diplomatik hujjatlar, xalqaro shartnomalar, kelishuvlar, rasmiy xabarlar, notalar, ultimatumlar, elchilik konvensiyalari, sud-protsessual hujjatlari, kodekslar, chaqiriq qog'ozlari, ishonch qog'ozlari, ijro varaqalari, ajrimlar, sud varaqalari, yuridik dalolatnomalar, raddiyalar, tavsiyanomalar, tashqariga chiqmaslik haqida tilxat, ayblov, ayblov nutqi, sudning alternativ qarori, hukm, davlat tashkilotlari o'rtasidagi yozishmalar, dalolatnoma, bayonnoma, tushuntirish xati, ma'lumotnoma, tarjimai hol, tavsifnoma, ariza va boshqalar.

Buning ustiga, rasmiy uslubning o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlar uni o'zbek tilidagi boshqa funksional uslublar bilan taqqoslaganda quyidagi farqlar ko'zga tashlanadi. Masalan, leksik-stilistik jihatdan olib qaraganda rasmiy uslubga oid matnlarda badiiy uslubga xos bo'lgan, voqelikni, inson hissiyoti, fikri va harakatlarini obrazli tasvirlashga yo'naltirilgan badiiy tasvir vositalari uchramaydi, shuningdek, o'xshatish, epitet, jonlantirish, metafora, mubolag'a, litota va boshqa vositalar, poetik leksika elementlari, chama sonlar, gumon olmoshlari, juft so'zlarning qo'llanishi ham bu uslubga xos emas. Morfologik jihatdan esa *-(i)m*, *-(i)ng*, *-(i)miz*, *-(i)ngiz*, *-(i)nglar*, *-laring* kabi egalik ko'rsatkichlari rasmiy uslubda mutlaqo ishlatilmaydi, sintaktik jihatdan esa undov va so'roq gaplarning, shaxsi ma'lum, shaxsi noma'lum, shaxsi umumlashgan gaplar bu uslubga xos emas.

Xulosa. Bu uslubda shakllanadigan hujjatlarga xos bo'lgan rasmiylik barcha ekstralingvistik omillarning markazida turuvchi til elementlarini tanlovchi, saralovchi, birlashtiruvchi va o'z navbatida, matnda ularni o'rniga qarab joylashtiruvchi yadroviy kuch sanaladi. Rasmiylik tushunchasiga bog'liq tarzda uslubning o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi va ular boshqa funksional uslublar bilan taqqoslaganda yana ham oydinlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Рашевская Е.П. Деловой русский язык. Учебное пособие. – Кострома, 2012. – С.8.
2. Ильмухаметов А.Г. Формирование и развитие официально-делового стиля башкирского литературного языка. Автореферат. – Уфа, 2005. – С.18.
3. Несговорова Г.П. Пособие по написанию разного рода деловых текстов https://www.iis.nsk.su/files/item/sbor_kas_16_nesgovorova.pdf.
4. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov I., Mahmudov N. Ish yuritish. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2003. – B.15
5. Бабаханова Д.А. Официально-деловой стиль современного узбекского литературного языка: Автореф. канд. филол. наук. – Ташкент, 1987. – С. 5.
6. Muhitdinova M., Abdullayeva N. Rasmiy uslubning diplomatik yozishmalar turi. – Toshkent, 1997. – B.56.
7. Lutfullayeva D.E. Mustaqillik davri rasmiy-idoraviy ish uslubi taraqqiyoti. Monografiya, – Toshkent, 2020. – B.6.
8. Учурова С.А., Луговых Е.В., Ильнер А.О. Grundlagen der deutschen Sprachtheorie: Lexikologie, Phonetik, Grammatik und Stilistik. Учебное пособие. – Екатеринбург, Издательство Уральского универ., 2018. – 244 с.
9. Захарова Е.А. Стилистика немецкого языка, 2013. – Бузулук. – С. 14-15.